

SHUKUR XOLMIRZAYEV-TANIQLI ROMANNAVIS

Muhayyoxon Hamidova Obidovna
*filologiya fanlari nomzodi, professor,
Namangan davlat universiteti*

***Annotatsiya:** Ijtimoiy jamiyatimizda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Badiiy asar inson ma’aviy olamini shakllantirish va boyitishning bosh omili sanaladi. Ayniqsa, bugungi kun nasrchiligida insonning yangicha dunyoqarashi, tafakkur olamining rangin jilolari aks etmoqda. Ushbu maqolada adibning o‘ziga xos badiiy ushbu tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** milliy o‘zlikni anglash, milliylik va umuminsoniylik, milliy xarakterlar, umuminsoniy qadriyatlar, tabiat va inson tasviri, zabardast adib, tendensiya, qahramonlari dunyoqarashlari, badiiy tahlil, badiiy obraz, badiiy niyat, ijodiy jarayon, yozuvchi fantaziyasi, qahramon ichki olami, badiiylik, badiiy mahorat, individual uslub, badiiy tasviriy vositalar, qahramon ma’naviy olami.*

Shukur Xolmirzayev o‘ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida tanqidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi. So‘zga xasis bo‘lsa-da, faqat o‘quvchiga to‘la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba’zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg‘otadi. O‘quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e’tiborni xarakter yaratishga qaratgandek ko‘rinadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchini o‘ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o‘quvchi e’tiboriga havola etiladi.

Hayotiy voqelikni kuzatish natijasida har bir ijodkorning badiiy dunyosini o‘zida aks ettiradigan original obrazlari bo‘ladi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “So‘nggi bekat” romanida ham xuddi shu kabi adibning o‘ziga xos badiiy mahoratini kuzatish mumkin. Shukur Xolmirzayevning “So‘nggi bekat” romani yozilgach, adabiyotshunoslar uchun fikr maydoni kengaydi.

Roman “Sharq yulduzi” jurnalida bosilganidan so‘ng u haqda boshlanib ketgan munozara yetti yilgacha davom etadi. Bunday uzoq davom etgan bahs sho‘ro adabiyotida kam uchraydigan hodisa edi. Adabiyotshunos olimlar Ochil Tog‘ayev, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Hamidullo Boltaboyevlarning roman haqidagi turlicha mulohazalari kitobxonlarda qiziqish uyg‘otdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Munozaraga kirishgan adabiyotshunoslar negadir asar g‘oyasi, poetikasi, yozuvchining romanni yozishdan maqsadi nim ekanligiga to‘xtalmadilar. Balki ular davr talabidan kelib chiqib romanni birinchi navbatda mafkura qarichi bilan o‘lchaydilar va xuddi o‘sha o‘rinda asardan uzoqlashish boshlanadi. Holbuki, asarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan muallif niyatini anglagan holda tadqiq qilish mumkin edi. Ammo asar yozilgan davr siyosati bunga yo‘l bermagan, degan fikrga keladi kitobxon.

“So‘nggi bekat” romani ham ijtimoiy pafosi, shuningdek, tarixiy poetik ko‘lami, noan’anaviy obrazlar tizimi bilan adabiyot maydonida jiddiy hodisa bo‘ldi.

“Menimcha, roman haqiqatini anglashga ikkita narsa halaqit bergan. Birinchi sabab – roman mavzusi, ikkinchi sababi yozuvchining uslubi tayyor qoliplarga tushmaganida. Ehtimol, sho‘rolar davrida adabiyotshunoslikda yozilgan qoidalar bo‘lga-u, biz bundan bexabardirmiz. Lekin bir haqiqat bor: kelin sepi bilan kelin atalgani kabi, asar badiiyati bilan asar. Hech bir yozuvchi bemaqsad va bemaslak qo‘liga qalam olmaydi”¹, degan fikrni ilgari suradi O.Toshboyev.

Asar nomlanishi yozuvchi nima demoqchi ekanini anglatuvchi poetik asosdir. Chunki sarlavhada asarning mag‘zi aks ettiriladi. Asar mazmuni bosh so‘zda ko‘rinmas ekan u bitikni pishiq, yetilgan asar sifatida qarash qiyin.

Shukur Xolmirzayev kirish so‘zi o‘rnida shunday yozadi: “romanning voqeasi Bekat qishlog‘ida kechadi. So‘ngra asar qahramonlarining ham hayotida xoh yetishilgan, xoh yetishilmagan manzillar borki, uni ham “bekat” deb atagim keladi.

Qolaversa, ijodda, izlanishda o‘zinning kelib to‘xtagan bekatim – bu.

Xullas, “bekat” nomi ramziydir”.

“So‘nggi bekat” romanida Shukur Xolmirzayev sho‘ro tuzumi davrining so‘nggi bosqichlaridagi hayotimizni, uning taraqqiy etish o‘rniga deysin va, hatto, tanazzulga ketish sabablarini badiiy tahlil etishni bosh maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsadni yozuvchi “Bekat” jamoa xo‘jaligi hayotini, shu yerda ishlovchi va yashovchi kishilar dardi, tashvishi, kurashi, armonlarini ko‘rsatish orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev romanlaridagi uslubga ko‘proq tanqidiy ruh xosdir. Bu ruh “So‘nggi bekat” da ham yetakchilik qiladi. Asardan chiqarilgan xulosa shuki, mavjud jamiyat (jamiya xo‘jaligi misolida) bu ko‘rinishda hukm surishi yoki davom etishi mumkin emas. Chunki u o‘z orbitasidan deyarli chiqib ketgan: jamiyat qonun-qoidalarini himoya qilish vazifasi bo‘lgan kishining o‘zi ashaddiy, g‘irt qonunbuzar; kattagina olim, inson sog‘lig‘ini asrashdek muqaddas kasb egasi esa, imkonsizlik va ilojsizlikdan o‘z nafsining quli; el-yurt og‘irini yengil qilishi mumkin bo‘lgan kishilar o‘z o‘rnida emas –bamisoli etikdo‘z somsapazu, somsapaz – xo‘jalik rahbari.

Romanda, ayniqsa bir yo‘nalishga alohida e‘tibor qaratiladi: bu – ma’naviy tanazzul muammosidir.

Shukur Xolmirzayev Abdulla Qahhordan so‘z tejash, detallarga katta ma’nolar yuklash, qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyat, to‘qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib, ixcham tasvirlash, dialoglardan jonli manzara yaratish sirlarini o‘rgandi. Biroq bu ta’sirni faqat tashqi ko‘rinishdan izlamaslik kerak. Bu ta’sirni qahramonlar ruhiy dunyosini aks ettirishdagi badiiy prinsiplar mushtarakligidan izlamaslik kerak.

¹ Toshboyev O. Абдий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятдан лавҳалар. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.- Б. 193.

“So‘nggi bekat” nafaqat adib ijodida, balki nasrimizda ham tub burilish yasadi. Yozuvchi ushbu asari bilan qotib qolgan adabiy-uslubiy qoliplarni parchaladi, milliy tafakkur rivojiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi. Kitobxonlar adabiy-badiiy didining o'suvida asarning ahamiyati katta bo'ldi. Roman badiiyati qahramonlar tiynatiga, ruhiyatiga yaqin bo'lgani uchun ham qiziqish bilan o'qildi, bahs qo'zg'atdi. Nafsilamrini aytganda, roman zang bosgan adabiy tafakkurni charxladi. Romanda o'sha davr adabiyot ixlosmandlari majburan o'rganib-ko'nikib qolgan qolip – kolxoz faoli, kollektivlashtirish yalovbardori, cho'lquvar sha'niga hamdu sano yo'q. “So‘nggi bekat” dakki bo'lib qolgan romanchilikdan yangi bir tajriba, o'xshatish mumkin bo'lsa, bahoriy nasim kabi bo'ldi, deb fikr bildirgan adabiyotshunos olim O.Toshboyevning fikriga qo'shilamiz albatta.

“So‘nggi bekat” haqidagi tahliliy-tanqidiy maqolalarning bir tomonlama – xo'jalik rahbari faoliyatiga bag'ishlanib qolganining bosh sababi, biznigcha, aksar adabiyotshunos olimlarimiz O'ktam Umaraliyevni bosh qahramon sifatida talqin qilishadi va shu yo'nalishdan kelib chiqib talqin qilishadi va shu yo'nalishdan kelib chiqib, asar tahliliga kirishib ketadilar. Buning aksi tarzida adabiyotshunos olim U.Normatov esa asarda bosh qahramon yo'q, deb hisoblaydi. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Romanning bosh qahramoni – Munira. U tarix fani o'qituvchisi. Tarix uning vujudiga moddiy bir narsadek singib, jonli bir bo'lagiga aylanib qolgan. U o'qituvchi sifatida o'z o'quvchilarini bir necha marta Eski Termizga, butparastlarning Qoratepa ostidagi ibodatxonasiga olib tushgan. U “kitobga kirmay qolgan boshqa tarix” – O'rta Osiyo, O'zbekistonning antik tarixidan ham saboq beradi.

U Bekatga kelib Ajinatepa siriga mahliyo bo'ladi va unda bir sir yashiringaniga ishonadi. Yozuvchini mazkur romanni uozishga undagan, uni bezovta qilgan g'oya xuddi mana shu obrazga yuklangan. Roman mana shu yo'nalishda o'rganilsa adibning nima demoqchi bo'lganini, asarning o'zak g'oyasi nimadan iborat ekanligini anglaymiz.

Munira asarning yakuniga qadar bir o'rinda o'zining baxtiyor ekanligini aytadi. O'ylab ko'raylik. U nimadan masrur? U baxt deganda nimani nazarda tutdi? Axir u eri Sodiqqa ergashib bu yerlarga kelgan edi-ku? U bungacha Bekat haqida faqat nazariy bilimga ega edi xolos. Uni maftun qilgan narsa Bekatning oddiy, sodda, samimiy odamlari bo'ldi. Tumandagi ma'rifatparvarlar bo'ldi. Munira ko'ngliga yaqin, ruhiga mos g'oyaviy hamfikrlar topdi va uning hayotiga mazmun kirdi. U bungacha Sodiq tufayli ezilgan, xo'rlangan, aldangan edi. Romanda sadoqat va xiyonat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash rang-barang obrazlar misolida ochib beriladi. Asardagi er-xotin Sodiq va Munira – ikki olam. Biri ko'ngil odami bo'lsa, biri dunyo odami.

Munira izlagan, orzu qilgan hayot Bekatda ekan. Bu maskanning sirli, jozibali tarixi, qiyofasi uni maftun qiladi. Uning orzu-umidlari Muniraning hammaslagi Sabohat timsolida ko‘rinadi. Shu ma'noda, so‘nggi bekatdagi inson – Munira, unga o‘xshagan vatanparvarlar. Asar so‘nggida Bekatda yuz bergan o‘zgarishlar – yovuzlik chekinib, ezgulikning ustun kelishi, yomonlar ketib, yaxshilarning qolishi, odamlarning ma'nan uyg‘onib, harakatga tushishi – bularning bari yozuvchining orzulari edi. Shukur Xolmirzayevning ma'naviy olami va uning ba'zi qirralari qahramonlarida aks etishi barobarida yaratilgan qahramonlarining xislati-yu, xususiyatlari jamlanmasidan adibning komil insoni, ideal shaxs haqidagi xulosasini tasavvur etishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy: “Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o‘qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g‘oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o‘z tabiatini, ruhini tasvirlaydi” – degan haqli e'tirofni aytgan. “Yozuvchi o‘zi to‘g‘risida gapirmoq uchun, albatta, iqrornoma yoki kundalik shakliga murojaat qilmog‘i shart emas”.² Sir emaski, Shukur Xolmirzayev o‘z ma'naviy dunyosiga har kimni ham yo‘latavermaydigan, “Tabiat-men-adabiyot” uchligiga sadoqatli bo‘lib yashagan adibdir.

Xulosa o‘rnida aytganda, “So‘nggi bekat” xalqning Milliy Uyg‘onishi haqidagi asardir. “So‘nggi bekat” ning so‘nggi bekati olisdan olis bo‘ldi. Yaxshi asarlarning umri boqiy bo‘ladi, deyishadi. Buning ma'nosi shuki, har bir avlod o‘z tushuncha va haqiqatlari bilan asarga murojaat qiladi va albatta o‘ziga munosib javobni topadi. Hamma gap shunda. “So‘nggi bekat” qatidagi ma'no-mohiyatni anglash va tushunish uchun bizga hurriyat, istiqloq kerak bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi: Un-tlar va ped.in-tlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darsli. - Toshkent: O‘qituvchi, 1999.-544 b.
2. Toshboyev O. Abadiy zamondosh. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - 480 b.
3. Xolmirzayev Sh. So‘nggi bekat: Roman.- Toshkent: Yosh gvardiya, 1976.- 246 b.
4. Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri // International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.
5. Hamidova M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro‘z, 2020.-B.106.
6. WWW.Kokanduni.uz// Rajapova X.A. Obrazlarda yozuvchi ruhiyatining aks etishi

² WWW. Kokanduni. uz//Rajapova X.A. Obrazlarda yozuvchi ruhiyatining aks etishi